BÖLAJAK KIMYO ÖQITUVÇILARIDA KASBIY REFLEKSIYA VA INNOVATSION KOMPETENTLIKNING ÖZARO ALOQADORLIGI

Masharipov Azamat Tursinboyevich
Urganch davlat pedagogika instituti
masharipovazamat41@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tezisda bölajak kimyo öqituvçilarining kasbiy refleksiyasi va innovatsion-pedagogik kompetentligi örtasidagi özaro aloqadorlik psixologik-pedagogik jihatdan asoslangan. J.Dyui, D.Şyon, D.Kolb, F.Kortxagen va A.V.Karpov ilmiy qaraşlari asosida refleksiya innovatsion faoliyatni ongli va tizimli xarakterga keltiruvçi psixologik mexanizm sifatida talqin qilingan. Refleksiyaning retrospektiv, situativ va perspektiv turlari innovatsion faoliyatning metodni tanlaş, darsda qöllaş va natijani baholaş bosqiçlari bilan boğlanib, ularning har biri kompetentlikning motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsional-faoliyatli va refleksiv komponentlarini rivojlantirişdagi örni körsatilgan. Kimyo fanini öqitişning öziga xos jihatlari – laboratoriya tajribasi va raqamli simulyatsiyalar samarasini öquvçilar tuşunçasi orqali baholaş zarurati hisobga olingan holda refleksiv faoliyatni taşkil etiş vositalari taklif etilgan. Tezis natijalari bölajak kimyo öqituvçilarini tayyorlaş jarayonida pedagogik amaliyot va metodik maşğulotlarni takomillaştirişga xizmat qiladi.*

Kalit sözlar: *kasbiy refleksiya, refleksivlik, innovatsion-pedagogik kompetentlik, bölajak kimyo öqituvçisi, refleksiya turlari.*

Özbekiston Respublikasining “Ta’lim töğrisida”gi Qonunida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantiriş ta’lim sifatini ta’minlaşning muhim şarti sifatida belgilangan [1]. Innovatsion-pedagogik kompetentlik pedagogning yangilikni qabul qiliş, öz amaliyotiga moslaştiriş va uning samarasini baholaş qobiliyatini ifodalaydi [8; 9]. Bu jarayonning psixologik mexanizmi refleksiyadir. J.Dyui refleksiv fikrlaşni tajribani anglaş va undan xulosa çiqariş usuli sifatida asoslagan [2], D.Şyon esa “refleksiv amaliyotchi” konsepsiyasida mutaxassisning faoliyat davomida va undan keyin öz harakatlarini tahlil qiliş orqali kasbiy ösişini körsatgan [3]. D.Kolbning tajribaviy örganiş siklida refleksiv kuzatuv tajribadan yangi tuşunçaga ötişning zaruriy bosqiçi hisoblanadi

ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING

[4]. F.Kortxagen esa öqituvçi tayyorlaşda çuqur refleksiyani taşkil etiş zarurligini asoslagan [5]. Kimyo öqituvçisi uçun refleksiya ayniqsa muhim: laboratoriya tajribasi yoki raqamli simulyatsiyani yangi şaklda qöllagan pedagog uning öquvçilar tuşunçasiga ta'sirini tahlil qila olmasa, innovatsiya tasodifiy xarakter kasb etadi.

Psixologik adabiyotlarda refleksivlik şaxsning öz faoliyatini anglaş, tahlil qiliş va boşqariş qobiliyatini ifodalovçi psixik xususiyat sifatida qaraladi. A.V.Karpov refleksivlikning retrospektiv, situativ va perspektiv şakllarini ajratadi [6]. Bu tasnif D.Şyonning "harakat içidagi" va "harakat haqidagi" refleksiya ğoyasi [3] hamda D.Kolbning tajribaviy örganiş sikli [4] bilan uyğun bölib, refleksiyani innovatsion faoliyatning har bir bosqiçi bilan boğlaş imkonini beradi.

Retrospektiv refleksiya bölajak kimyo öqituvçisining oldingi tajribasini tahlil qilib, yangi metodni tanlaş va darsni loyihalaş bosqiçida namoyon böladi; u kompetentlikning kognitiv va motivatsion-qadriyatli komponentlarini rivojlantiradi. Situativ refleksiya darsda innovatsion metodni qöllaş jarayonida pedagogga uni vaziyatga, masalan, laboratoriya tajribasining kutilmagan natijasiga moslaştiriş imkonini beradi va operatsional-faoliyatli komponentni mustahkamlaydi. Perspektiv refleksiya esa natijani baholaş va keyingi qadamni rejalaştiriş orqali refleksiv komponentning asosini taşkil etadi. Şunday qilib, refleksiya innovatsion faoliyatda "qöllaş – tahlil qiliş – qayta loyihalaş" siklini şakllantiruvçi boğlovçi mexanizm vazifasini bajaradi.

Kimyo öqituvçisi faoliyatida refleksiya ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, çunki laboratoriya tajribasi yoki raqamli simulyatsiyaning samarasi öquvçilarning kimyoviy hodisalarni qanday tuşunganiga qarab baholanadi. A.K.Markova refleksiyani pedagog professionalizmining tayanç sifati deb hisoblaydi [7], E.Ğoziyev esa şaxsning öz-özini anglaşini uning faoliyatini boşqarişning psixologik asosi sifatida körsatadi [10]. F.Kortxagen ta'kidlaganidek, refleksiya faqat texnik harakatlarni emas, balki pedagogning kasbiy qadriyatlari va identikligini ham qamrab olsagina çuqur ta'sir körsatadi [5]. Şu sababli refleksiv faoliyat talabaning şaxsiy taşabbusiga qoldirilmasdan, refleksiv kundalik, mikrodars tahlili, dars tahlili protokoli va e-portfolio kabi vositalar orqali öquv jarayonining maxsus taşkil etilgan bosqiçiga aylantirilişi lozim.

Kasbiy refleksiya bölajak kimyo öqituvçisi innovatsion-pedagogik kompetentligining barça komponentlarini özaro boğlovçi psixologik mexanizm hisoblanadi. Uning retrospektiv, situativ va perspektiv turlari innovatsion faoliyatning metodni tanlaş, qöllaş va baholaş bosqiçlariga mos keladi. Kimyo öqitiş metodikasi maşğulotlari va pedagogik amaliyotda refleksiv faoliyatni tizimli taşkil etiş bölajak öqituvçilarda innovatsiyalarni ongli, asosli va samarali qöllaş

könikmalarini şakllantirişning muhim psixologik-pedagogik şarti bölib xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlil asosida bölajak kimyo öqituvçilarida refleksiv faoliyatni rivojlantiriş böyiça quyidagi yönalişlarni belgilaş mumkin: birinçidan, kimyo öqitiş metodikasi maşğulotlarida har bir innovatsion metodni qöllaşdan söng uning samarasini öquvçilar tuşunçasi nuqtayi nazaridan tahlil qilişni majburiy bosqiç sifatida joriy etiş; ikkinçidan, pedagogik amaliyot davomida refleksiv kundalik va e-portfolio yuritişni tizimli taşkil etiş; uçinçidan, mikrodarslarni tengdoşlar va öqituvçi bilan birgalikda tahlil qiliş orqali jamoaviy refleksiya madaniyatini şakllantiriş; törtinçidan, refleksiyani faqat texnik harakatlar bilan çeklamasdan, bölajak öqituvçining kasbiy qadriyatlari va pedagogik identikligini anglaşga yönaltiriş. Mazkur yönalişlarning amalga oşirilişi bölajak kimyo öqituvçilarida innovatsiyalarga tanqidiy va ijodiy yondaşuvni, öz kasbiy faoliyatini mustaqil takomillaştiriş ehtiyojini şakllantiradi. Kelgusida refleksivlik va innovatsion-pedagogik kompetentlik örtasidagi aloqadorlikni A.V.Karpov metodikasi asosida empirik örganiş tadqiqotning istiqbolli yönalişi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **O‘zbekiston Respublikasi.** 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/docs/5013007.

2. **Dewey J.** How we think. — Boston: D.C. Heath & Co., 1910. — 224 p.

3. **Schön D. A.** The reflective practitioner: How professionals think in action. — New York: Basic Books, 1983. — 374 p.

4. **Kolb D. A.** Experiential learning: Experience as the source of learning and development. — Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1984. — 256 p.

5. **Korthagen F. A. J.** In search of the essence of a good teacher: Towards a more holistic approach in teacher education // Teaching and Teacher Education. — 2004. — Vol. 20, No. 1. — P. 77–97.

6. **Карпов А. В.** Рефлексивность как психическое свойство и методика её диагностики // Психологический журнал. — 2003. — Т. 24, № 5. — С. 45–57.

7. **Маркова А. К.** Психология профессионализма. — М.: Знание, 1996. — 312 с.

8. **Зимняя И. А.** Ключевые компетенции — новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. — 2003. — № 5. — С. 34–42.

9. **Хуторской А. В.** Педагогическая инноватика: учебное пособие. — М.: Академия, 2008. — 256 с.

10. **G‘oziyev E. G‘.** Umumiy psixologiya. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010. — 544 b.

ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING